

**TARIX FANI O'QITISHDA METODLAR VA INNOVATSION USULLARDAN
FOYDALANISH**

Haydarov Temur Jaxongir o'g'li

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti Jizzax
viloyati filiali uslubchisi*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10425534>

Abstract: In this article, information on the use of methods and innovative methods in teaching history is reflected.

Key words: Methods of studying historical facts, chronological thinking, historical understanding, historical analysis and interpretation, historical research, historical issues, analysis and decision-making.

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarix fani o'qitishda metodlar va innovatsion usullardan foydalanish borasida ma'lumotlar o'z aksini topadi.

Kalit so'zlar: Tarixiy faktlarni o'rganish metodlari, xronologik fikrlash, tarixiy tushuncha, tarixiy tahlil va talqin, tarixiy tadqiqotlar, tarixiy masalalar, tahlil va qarorlarni qabul qilish.

KIRISH. (Introduction)

Mustaqillikning birinchi kunlaridan ijtimoiy-gumanitar fanlarda tub o'zgarishlar davri boshlandi. Tarix fanini tadqiq etish va o'qitishda yangi metodologiya kirib keldi. Tarix fanida e'tirof etilgan xolisiylik, ilmiylik, tarixiylik va muqobililik tamoyillari tarixni tadqiq etish va o'qitishda tadbiq etila boshlandi. Tarix ta'limi mazmun-mohiyatini zamon ruhida o'quvchilarga yetkazish uchun o'quv-metodik majmua yangilandi. Maktablar uchun tarix fanidan yangi darsliklar yaratildi.

O'tmish va tarixiy xotira insoniyat tarixinining barcha davrlarida e'tibor markazida bo'lib kelgan. Bu e'tibor natijasida ilmiy tadqiqotlar va izlanishlar orqali tarixiy hodisalar, shaxslar va jarayonlar bilan bog'liq ko'plab savollarga javob izlangan. Ushbu jarayon inson o'tmishda nima sodir bo'lganligini yozishni boshlashi bilan va tarixshunoslikni paydo bo'lishiga asos bo'lgan.

Tarix o'qitish deganda, tarixiy material vositasida o'quvchilarga bilim berish, ularni milliy istiqlol ruhida tarbiyalash va kamol toptirish vazifalarini amalga oshirish zarur bo'lgan jarayon, o'qituvchi va o'quvchilarining aqliy (ichki) hamda o'quv harakatlari (tashqi) jarayoni tushuniladi.

Tarix kursining mazmuni deganda, birinchi galda tarix dasturida belgilab berilgan tarixiy bilimlar ko'lami, o'quv materiali: uning asl mazmuni, o'quvchilarining tarixiy materiallarni o'zlashtirish olgan bilimlaridan foydalana bilish sohasidagi o'quv usullari, ko'nikma va malakalari sistemasi, shu jumladan, ularni ilmiy tadqiq qilish ishlarining eng oddiy shakllarini egallashlari ko'zda tutiladi.

Tahlillar natijasida tarix ilmini o'tmishdan to hozirgi kungacha juda ko'p turli maqsadlarda ishlatilganligini ko'rishimiz mumkin. Tarix ayniqsa o'tmishga qiziqish, o'yinkulgi, axloqiy va diniy ta'lim, siyosiy va mafkuraviy qiziqlashlarni oshirish uchun ishlatilgan. Tarix qiziqarli soha sifatida ko'rilgan va odamlarning e'tiborini jalg qilish uchun ishlatilgan. Ayniqsa, tarixiy suhbatlar har bir davrda odamlarning e'tiborini tortuvchi targ'ibot vositasi sifatida foydalanilgan.

Tarixiy tafakkur ko'nikmalari tarixiy bilimlarni tadqiq qilish va uning mohiyatin tushunish asosida beshta kategoriyada jamlanadi.

- xronologik fikrlash
- tarixiy tushuncha
- tarixiy tahlil va talqin
- tarixiy tadqiqotlar
- tarixiy masalalar, tahlil va qarorlarni qabul qilish.

XIX asrdan boshlab rasmiy ta'lim muassasalariga kirishni boshlagan tarix darslarining mazmuni va maqsadlarida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Taniqli metodist A.I.Strajev aytganidek: "Tarix o'qitish metodi tarixiy material bo'yicha qilinadigan ana shu mantiqiy amaliyotlardan tashkil topadi". O'qitish metodlarini ba'zan o'quvchilarining bilish faoliyati, faollik darajasiga qarab klassifikatsiyalash tavsiya qilinadi. Bu tarzda ajratish o'qitish metodlaridan ko'ra, ko'proq o'qitishning umumiy xarakteriga taalluqlidir. Metodist A.I.Strajev "Tarix o'qitishning tashkil etilishi, metodlari va vositalari tarix fanining ma'lum ta'lim-tarbiya vazifalarini amalgalashga xizmat qiladi"— deydi. Biroq, u ham o'qitishning asosiy metodlarini tarixiy jarayonning o'zini o'rganish metodidan iborat qilib qo'yib, masalada noaniqlikka yo'l qo'yadi. A.I.Strajev quyidagi o'qitish metodlarini tavsiya qiladi:

- tarixiy faktlarni o'rganish metodlari;
- xronologiyani o'rganish metodlari;
- mahalliy tarixiy voqealarni o'rganish metodlari;
- asosiy tarixiy tushunchalarni shakllantirish metodlari;
- sabab-natija aloqalarni o'rganish metodlari;
- tarixiy jarayonning qonuniyatlarini ochib berish metodlari.

Ma'lumki, tarix o'qitish va o'rganishni tashkil etish jarayonidan iborat. Metodist A.Strajevning klassifikatsiyasidan ham ko'rinish turibdiki, u faqat o'qituvchining o'quvchilarini o'qitishini ko'zda tutadi, o'quvchilarining o'rganishini tashkil etish va ularning o'rganishiga o'qituvchining rahbarlik qilishini e'tiborga olmaydi. Ko'zga ko'ringan metodist V.G.Kartsev bu masalada boshqacha yo'l tutadi. U metodlar sistemasiga o'quv harakteriga ega bo'lgan belgilar ("Bayon qilish metodi, "so'rash metodi") va umumiy didaktiv vazifalar ("materialni o'rganish metodi", "mustahkamlash metodi", "bilimni tekshirish metodi" va boshqalar) ni emas, balki o'quvchilarining tarixiy voqealarni bilish qonuniyatlarini asos qilib oladi. Metodlar haqidagi nazariyaning metodologii asosini, ya'ni jonli mushohadadan abstrakt tafakkurga va undan amaliyotga o'tish tashkil etadi.

Shuningdek, bugungu kunga kelib, tarix fanining mакtab kursi, asosan uchta vazifani bajarishga qaratilganligini ko'rishimiz mumkin, ya'ni:

- o'quvchilarga tarixiy bilimlarning asoslarini berish, ularning chiqurligi va mustahkamligini ta'minlash;
- o'quvchilarda tarixni ilmiy tushunishning shakllanishi va milliy tarix,
- xorijiy mamlakatlar va xalqlar tarixiga hurmat munosabatida bo'lishni ta'minlashga;
- o'quvchilarda tarixiy ong, tarixiy xotira, tarixiy tafakkurni rivojlantirish va o'quvchilarining bilimlarini mustaqil o'zlashtirish va qo'llashga o'rgatishdir.

O'quvchilarining tarixiy tafakkuri ularning umumiy dunyoqarashining shakllanishi bilan birligida boradi. O'quvchilarining dunyoqarashida tarixiy tafakkurning rivojlanishi uning amaliy faolligini ta'minlaydi. Ya'ni, tarixan dunyoda mavjud bo'lgan fan-texnika yangiliklarini o'zlashtirishi bilan o'z faoliyatida yangilikka intilish o'zida yaratuvchanlik faoliyatini shakllantiradi. O'quvchi tarix fanidan bilimlar asosini o'zlashtirganda millatimiz va boshqa xalqlarning o'tmish, kecha va bugungi taraqqiyoti to'g'risida tushunchaga ega bo'ladi. Tarix ta'limi har bir odamga etnomilliy, umummilliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'zlashtirishga yordam berishi lozim. Bu o'quvchini shaxs, fuqaro, inson sifatida shakllanishiga asos bo'ladi. O'quvchilar O'zbekiston tarixi fanini o'rganish davomida umuminsoniy qadriyatlarni o'zlashtirib boradi. Tarix darslari o'quvchilarga tarixiy bilimlarni yetkazib beruvchi vositagina emas, balki ularning ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllanib borishlarini ta'minlovchi kuchli ta'sirga ega bo'lgan omil hamdir. Maktab tarix ta'limining zamonaviy konsepsiysi tarixni tizimli o'rganishni saqlab qoladi. Lekin tarix uning tamoyillari asosida o'rganiladi. Tarix o'quv fani o'rta maktabda gumanitar fanlarning rivojlanishi uchun metodologik shart-sharoit yaratadi. Tarix fanining ma'lumotlari, tushunchalar, atamalari va tamoyillari boshqa fanlarda ham keng qo'llaniladi, o'z navbatida tarix fanida boshqa fanlardagi tushuncha, atamalardan foydalilaniladi.

Mamlakatimizda tarix fanini rivojlantirish sohasidagi ishlar kompleks va tizimli davom ettirilmoqda. Bugungi kunda O'zbekiston tarixini o'rganishda tub o'zgarishlar yuz bermoqda. Ushbu yo'nalishda quyidagi ilmiy, metodologik masalalar asosiy o'rinn tutadi:

1. Tarixni o'rganishning metodologik asoslarini rivojlantirish. Bunda tarix metodikasi bo'yicha mavjud turli xil ilmiy konsepsiyalarni o'rganish orqali ulardan foydalananish.
2. Tarixni o'rganish uchun ishlab chiqilgan yagona konsepsiyanini amalga tadbiq etish.
3. O'rta va o'rta maxsus ta'lim, professional ta'lim, oliy ta'lim uchun yaratilayotgan darsliklarni yangi avlodini ishlab chiqishda yagona konsepsiya tayanish.
4. Tarix fanining dolzarb muammolarni o'rganishda turli fanlarning yutuqlari, fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi hamda klaster modeli asosidagi samarali hamkorlik faoliyatini tashkil etish.
5. Tarix fanini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy-amaliy anjumanlarni o'tkazish va fanning dolzarb muammolarini o'rganish jarayonida erishilgan yutuqlarni monitoringini olib borish va hokazo.

Tarix o'qitishda fanlar aro aloqadorlikni tashkil etish.

Ta’lim amaliyoti ko‘rsatishicha, maktab ta’limida fanlararo aloqadorlikni yo‘lga qo‘yish fan va jamiyat hayotida bugungi kunda sodir bo‘layotgan integratsion jarayonlarning yorqin ifodasidir. Ushbu aloqadorlik o‘quvchilarning bilimlarni ongli o‘zlashtirishi, dunyo haqidagi yaxlit tasavvurlarini rivojlantirish va amaliy va ilmiy metodik tayyorgarligini oshirishda muhim o‘rinni egallaydi. Bunday tayyorgarlik umumiyligi o‘rtada ta’lim bitiruvchilarini darsda va darsdan tashqari mashhg‘ulotlarda, ishlab chiqarishda va umuman har qanday faoliyatda o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini erkin qo‘llash imkoniyatini beradi.O‘quv fanlariaro aloqadorlikni ta’minalash bo‘yicha o‘qituvchilar tajribalarini umumlashtirib, fanlararo aloqadorlikda tashkil etiladigan darslarni uch guruhga bo‘lish mumkin:

1. *Ko‘rgazmalilik asosida tashkil etiladigan darsda o‘rganilayotgan mavzu yuzasidan alohida topshiriqlarni bajarish uchun qo‘llaniladigan o‘quv fanlariaro aloqador elementlarning turli jadval va modellarda ifodalanganligi asosida.Chunonchi, tarix darslarida O‘zbekiston tarixiu va Jahon tarixi darslarida mazmunan o‘xshash bo‘lgan “Osiyo mamlakatlari madaniyati”, “Yevropada o‘rta asr shaharlari”, “Osiyo mamlakatlarining o‘rta asr shaharlari” kabi mavzularni o‘rganish bo‘yicha.*

2. *Mavzularning bir-biriga o‘xshashligi:* o‘quv jarayonining uzviy tarkibiy qismida o‘quv fanlariaro aloqadorlikdan foydalanish asosida darsning samaradorligini oshirish.

3. *Umumlashtirish* - o‘quv fanlarining umumiyligi qonuniyatlari va tamoyillarini mukammal o‘rgatish maqsadida turli o‘quv fanlari bo‘yicha maxsus tashkil etiladigan takrorlash-umumlashtirish darslarida o‘quvchilarning egallagan bilimlarini takrorlashga imkon yaratish.

Agarda, dars jarayonida quyidagi didaktik shartlarga amal qilinsa, o‘qitishga mujassam yondashishda samaradorlikka erishiladi:

- ✓ o‘rganilayotgan o‘quv fanlari bo‘yicha mavzularni mazmunan uyg‘unlashtirish orqali o‘quv rejalariga fanlararo aloqadorlik asosida tashkil topgan dars soatlarini kiritish;
- ✓ o‘quv fanlariaro aloqadorlik asosida tashkil etilgan darslarning ta’lim sifatini ta’minalash va uning tarbiyaviy jihatlarini kuchaytirish;
- ✓ darslarda mazmunan bir-biriga yaqin yoki aralash o‘quv fanlari tarkibidagi tushunchalar yordamida o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashi hamda muayyan ko‘nikma va malakalarini shakllantirish;

O‘quv fanlari aro aloqadorlikni ta’minalashda o‘quvchilar idrok etish faoliyatlarini jadallashtirishning turli vositalaridan unumli foydalanish. Chunonchi, aralash o‘quv kurslari bo‘yicha, muammolilik, ko‘rgazmalilik, mustaqil ishlar, individual topshiriqlar tashkil etish yordamida bunday maqsadga erishish mumkin.

O‘quv fanlariaro aloqadorlik asosida o‘rganilayotgan dars materiallarini o‘quvchilarga chuqurroq singdirishda boshqa dars materiallaridan foydalanish, mazkur materiallarning mazmun jihatidan o‘zaro aloqador bo‘lishi. Bunda, takrorlovchi, umumlashtiruvchi, yangi materialni o‘rganish, ko‘nikma va malakalarini mustahkamlash va nazorat darslari ham bo‘lishi mumkin.

Fanlararo aloqadorlik o‘quv jarayonining ushbu ziddiyatlarini yanada boyitadi, ular asosida yangi qarama-qarshiliklar yuzaga keladi. Bu o‘quv predmetidan o‘rganilayotgan

bilimlarni o‘zlashtirish va o‘quv fanlariaro aloqadorlik asosida masalalarni yechish va boshqa turli fanlardan bilimlarni o‘zlashtirishda ularni qo‘llashni bilish o‘rtasidagi qarama-qarshiliklardir. O‘quvchilarning bilish faoliyatları va o‘quv fanining uyg‘unlashtirilgan mazmuni o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar asosida muammoli vaziyat yuzaga keladi.

Adabiyotlar:

1. Toshtemirova Saodat Abdurashidovna. Ta’lim sifati va uni demokratlashtirish ilmiy muammo sifatida //Uzluksiz ta’lim.-2020.- № 1 (86). — S.5.
2. J.Rahimov O‘zbekiston tarixini o‘rganishda arxiv manbalaridan foydalanish. T. O‘qituvchi. 1995
3. T.Rahmatullayev. O‘zbekiston xalqlari tarixini o‘rganishda arxeologiya materiallaridan foydalanish T.O‘qituvchi. 1994.
4. Azizzo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat.-T.: TDPU. 2003.